

ISSN: 2181-4562

DOI Journal 10.56017/2181-4562



IMFAKTOR

JOCAA

VOLUME I, ISSUE 10

МАДАНИЯТ ВА САНЪАТ

JOURNAL OF CULTURE AND ART

КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО

DECEMBER

2023



ISSN: 2181-4562
DOI Journal 10.56017/2181-4562

МАДАНИЯТ ВА САЊАТ ЖУРНАЛИ

I-ЖИЛД, 10-СОҢ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО

ТОМ-I, НОМЕР-10

JOURNAL OF CULTURE AND ART

VOLUME-I, ISSUE-10

ТОШКЕНТ – 2023

МАДАНИЯТ ВА САНЪАТ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО | JOURNAL OF CULTURE AND ART

№ 10 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4562-2023-10>

БОШ МУҲАРРИР:

Халикулова Гўзал
Эркиновна

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти
профессори в.б., Санъатшунослик фанлари номзоди

МАСЪУЛ МУҲАРРИР:

Мелиқўзиев Иқбол
Мамасодиқович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти
кафедра мудири, профессор в.б., Санъатшунослик
фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ:

Касимов Нозим
Козимович
Ходжаметова Гулчира
Илишевна

Маданият ва туризм вазирлиги “Таълим ва илм-фанни
ривожлантириш бошқармаси” бошлиғи, профессор
Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти Нукус
филиали “Санъатшунослик” факультети декани, Тарих
фанлари номзоди, профессор

Абдувоҳидов
Фахриддин
Мелигалиевич

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти
кафедра мудири, доцент, Санъатшунослик фанлари
бўйича фалсафа доктори (PhD)

Кадиров Рамз
Турабович
Умаров Мамур
Боташикович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти “Саҳна
нутқи” кафедраси доценти

Худоев Ғани
Муҳаммадович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти
“Санъатшунослик ва маданиятшунослик” кафедраси
профессори в.б., фалсафа фанлари номзоди
Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти
кафедра мудири, Санъатшунослик фанлари бўйича
фалсафа доктори (PhD)

Бердиханова Шахида
Нурлыбаевна

Юнус Ражабий номидаги Ўзбек миллий мусиқа санъати
институти “Ўзбек мақоми тарихи ва назарияси”
кафедраси мудири, санъатшунослик фанлари бўйича
фалсафа доктори (PhD)

Дўсанов Раҳимжон
Раимқулович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти, “катта
ўқитувчи”, мустақил тадқиқотчи

Суннатиллаев Асатилло
Суннатович

Юнус Ражабий номидаги Ўзбек миллий мусиқа санъати
институти “Илмий тадқиқотлар, инновациялар ва илмий-
педагогик кадрлар тайёрлаш” бўлими бошлиғи, мустақил
изланувчи (PhD)

Алланбаев Рудакий
Оринбаевич
Зиявутдинова Зулфия
Усеиновна
Раимова Дилфузахон
Махаммадсолиевна
Ботирова Хилола
Турсунбаевна

Қорақалпоғистонда хизмат кўрсатган артист, “Шуҳрат”
медали соҳиби, профессор в.в.б

“Мусиқа санъати” ихтисослиги бўйича доцент

“Мусиқа санъати” ихтисослиги бўйича доцент

“Мусиқа санъати” ихтисослиги бўйича доцент

“Маданият ва санъат” журнали 2023 йил 24 февраль куни № 065356-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган. Мазкур журнал **6 та** халқаро маълумотлар базаларида индексланган бўлиб, жорий йил учун **UIF 2023 = 7.7 “импакт-фактор”** кўрсаткичига эга.

Ўзбекистон Республикаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги ҳузуридаги Олий аттестация комиссиясининг 2023 йил 24 июлдаги 01-02/1199-сонли хатига мувофиқ ушбу журналда чоп этилган мақолалар **хорижий мақолалар сифатида тан олинади.**

Саҳифаловчи\Page Maker\Верстка: Абдураҳмон Хасанов

Таҳририят манзили: Тошкент шаҳар, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-уй. Почта индекси 100152. Веб-сайт: www.imfaktor.uz/com

Телефон номер: +99894-410 11 55, E-mail: tahririyat@imfaktor.uz

© “ИМФАКТОР Pages” илмий нашриёти , 2023 йил.

© Муаллифлар жамоаси, 2023 йил.

МАДАНИЯТ ВА САҢЪАТ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО | JOURNAL OF CULTURE AND ART

RAXMANOVA Istatjon Muminovna*Buxoro davlat universiteti**“Musiqqa ijrochiligi va madaniyat”**kafedrasi o‘qituvchisi*<https://doi.org/10.5281/zenodo.10432786>

MUSIQA TA’LIMIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING MAVJUD HOLATI

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada musiqa ta’limidagi zamonaviy texnologiyalarni joriy etishning mavjud holati haqida so‘z boradi. Turli davrlardagi olimlarning va musiqa sohasida iz qoldirgan kompozitorlarning ijodiy ishlari haqida ma’lumotlar berilgan. Bundan tashqari, shuni takidlash kerakki, turli davrlardagi olimlarning va musiqa sohasida iz qoldirgan kompozitorlarning ijodiy ishlari haqida ma’lumotlar berilgan bo’libgina qolmay, chuqur va obdon o’rganilgan.

Kalit so‘zlar: musiqa, pedagogika, texnologiya, musiqa ta’limi, olimlar, musiqa sohasi, zamonaviy texnologiyalar, musiqa sohasida iz qoldirgan kompozitorlar, musiqa sohasida iz qoldirgan olimlar.

СОВРЕМЕННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В МУЗЫКАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ ТЕКУЩЕЕ СОСТОЯНИЕ ВНЕДРЕНИЯ

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается текущее состояние внедрения современных технологий в музыкальном образовании. След ученых разных эпох и в области музыки оставил сведения о творческой деятельности композиторов. Кроме того, следует отметить, что сведения о творчестве ученых разных эпох и композиторов, оставивших свой след в области музыки, не только даны, но и глубоко и обстоятельно изучены.

Ключевые слова: музыка, педагогика, технологии, музыкальное образование, ученые, музыка области, современных технологий, композиторов, оставивших свой след в области музыки, ученых, оставивших свой след в области музыки.

MODERN TECHNOLOGIES IN MUSIC EDUCATION CURRENT STATE OF INTRODUCTION

ANNOTATION

This article will talk about the current state of the introduction of modern technologies in music education. Trace in the field of scholars and music of different eras information is given about the creative work of the composers left behind. In addition, it should be noted that not only information is given about the creative work of scientists of different eras and composers who left their mark on the field of music, but it is also studied deeply and obliviously.

Keywords: music, pedagogy, technology, music education, scholars, music composers who have left their mark on the field of music, modern technologies, scientists who have left their mark on the field of music.

Insonni bolalikdan musiqaga qiziqtirish, musiqiy idrok, tasavvurini o‘stirib borish har bir jamiyat uchun nihoyatda zarur bo‘lgan holatdir. Shu jarayonda musiqqa insonga insonligini eslatib, uning qalbida kelajakka umid va ishonch uyg‘otadi.

Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev “Musiqqa san‘ati madaniy fenomen [1] sifatida yangi avlodni tarbiyalash va kamolga yetkazish borasida cheksiz imkoniyatlarga egadir. San‘at bilan oshn bo‘lgan yoshlarning hayotga munosabati, milliy urf-odat va umumbashariy qadriyatlarga hurmati baland bo‘ladi. Shu ma‘noda musiqqa hech narsa bilan o‘lchab, solishtirib bo‘lmaydigan ilohiy tasir kuchiga ega desak ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz” deb ta‘kidlaydi. Shuning uchun ham o‘quvchi-yoshlarning musiqiy qobiliyatini shakllantirish, musiqaga ishtiyoqini va mehrini oshirish, amaliy ko‘nikmalarni berib borish va zaruriy chora-tadbirlarni ko‘rish davlatimiz oldida turgan muhim vazifalardan biri sanaladi.

Musiqiy go‘zallik insonning ma‘naviy qiyofasi shakllanishida muhim omildir. VIII-XII asrlarda Sharqshunoslik tarixida “Sharq yoki musulmon Renessansi” davri deb nom olgan davr. Sharqda O‘rta asrlardagi barcha taraqqiyotlarning eng yuksak cho‘qqisi hisoblanadi. Abu Yusuf Yoqub ibn Is‘hoq al-Kindiy, Abu Nasr ibn Muhammad al-Farobiy, Abu Ali ibn Sino va boshqalar shu davrning ajoyib vakillari bo‘lganlar.

Al-Farobiyning musiqaga bag‘ishlangan “Kitob ul-musiqiy al-Kabr” (“Musiqqa haqida katta kitob”) asarida yozilishicha musiqqa haqidagi fan amaliy va nazariy sohalardan iborat. Birinchisi musiqiy asboblarni yordamida musiqiy asarlarni ijro etishga oid. Ikkinchisi esa ohanglarning kelib chiqishi va musiqiy asarlarni yaratilish qonunlarini o‘rganadi. Farobiyning ta‘biricha san‘at, shu jumladan, musiqqa ilohiy ne‘mat emas, balki inson ijodining mahsulidir. Uning vazifasi insonga o‘z intellektual va axloqiy sifatlarini takomillashtirishda foydali bo‘lishidan iborat [2].

Musiqqa haqida Ibn Sino o‘zining besh asarida yozgan. Bu “Kitob ash-shifo”, (“Shifo kitobi”) nomli ko‘p jildlik qomusiy asarning musiqqa haqidagi bo‘limidir. Ibn Sinoning ta‘rificha san‘at, jumladan, musiqqa fandır. Bundan san‘atning “aql bilan idrok etish” yoki “buyumlarning bilish” mohiyati kelib chiqadi. Ibn Sino musiqaning tarbiyaviy mohiyatini alohida ta‘kidlab o‘tgan. Bunda san‘at vositasi orqali estetik didni tarbiyalashga asosiy e‘tibor qaratilgan. Buyuk olim ta‘kidlaydiki, shaxsni har tomonlama kamol toptirish uchun ikki tomonlama-jismoniy barkamollik uchun jismoniy mashqlar, ma‘naviy rivojlanishi uchun musiqqa va boshqa san‘at turlari orqali ta‘sir o‘tkazish lozim.

She‘riyat mulkining sulтони Alisher Navoiy nozik ta‘b, yuksak zakovat egasi sifatida musiqani sevib tinglar, dil-dildan zavqlanardi.

Shoir talantli san'atkorlarga hamisha g'amxo'rlik qildi, yoshlarning kamoloti uchun tinmay qayg'urdi. Insonning kamolotga yetishuvida asosiy rol o'ynovchi vositalardan biri - musiqa san'atidan bahramand bo'lish deb bildi. "Musiqani idrok etmagan shoir nim shoirdir",- deydi Navoiy. Bu kalima shoir estetik qarashlarining mohiyatini yaqqol ko'rsatadi.

Musiqa fani o'qituvchisi o'zi va o'rganuvchi o'quvchilar uchun qulay va qiziqarli bo'lgan o'qitish usullari, yo'llari, shakllari, vositalari, ulardan foydalanish shart-sharoitlarini belgilaydi, ilg'or pedagogik texnologiyalar yordamida o'quv jarayoni samaradorligini oshirishga harakat qiladi. Shu boisdan ham musiqaviy-pedagogik texnologiya, didaktik texnologiya, musiqa ta'limi texnologiyalariga o'quv jarayonidagi eng samarali vositalar sifatida qaralmoqda. Ulardan bugungi kunda jahon pedagogikasi amaliyotida, jumladan musiqa ta'limida ham keng foydalanilmoqda.

Musiqiy pedagogik texnologiya hozirgi kunda eng rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimida bo'lgani kabi bizning respublikamizda ham musiqa ta'limi jarayonini tashkil qilish, boshqarish, nazorat qilish bilan bog'liq ishlarda ustuvor o'rinni egallamoqda. Shuning uchun ham musiqiy pedagogik texnologiyalardan barcha musiqa fanidan dars beruvchi muallimlar yaxshi xabardor bo'lishi, darslar jarayonida ularni qo'llab dars o'tishlariga muhim e'tibor berilmoqda. Bu aynan jamiyat taraqqiyotining musiqaviy obyektiv qonuniyatlariga mos bo'lib, jamiyat taraqqiy etishi bilan musiqiy ta'lim – tarbiya mazmuni, maqsad va vazifalari shunga mos ravishda takomillashib borishi bilan bog'liqdir [3].

Musiqiy-pedagogik amaliyotda yangi yo'l va vositalarini jadal tatbiq etilayotganligini kuzatish mumkin. Biroq ba'zi musiqiy ta'lim shakl va faol usullar o'rniga bo'linmas ta'limiy texnologiyalar zarur. Lekin musiqiy ta'lim jarayonini texnologiyali loyihalashtirish va rejalashtirishni, faqat musiqiy texnologik bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lgan o'qituvchi bajara olishi mumkin. Chunki, musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarni yangi pedagogik texnologiyalar orqali ma'naviy tarbiyalash jarayoni dars mashg'ulotlari orqali amalga oshadi. Ular o'z ifodasini an'anaviy va noan'anaviy o'qitish uchun majmualiy texnik vositalarni yaratishda topgan.

Hozirgi vaqtda pedagogik texnologiya musiqa fanini o'qitishning texnik vositalari yoki kompyuterlardan foydalanish sohasidagi tadqiqotlardek qaralmaydi, balki musiqa ta'limi samaradorligini oshiruvchi omillarni tahlil qilish, ishlab chiqish hamda ijobiy samara beruvchi usul va musiqiy materiallarni qo'llash, shuningdek qo'llanilayotgan usullarni baholash yo'li orqali ta'lim jarayonining asoslari va uni maqbullashtirish yo'llarini ishlab chiqishni aniqlash maqsadiga qaratilgandir.

Barcha ta'lim va tarbiya ishlarini, jumladan musiqa o'qitishni ham pedagogik texnologiya yo'liga o'tkazish, maktab musiqa amaliyoti pedagogik jarayonini ixtiyoriy qurish va uni amalga oshirishdan keskin burilishni anglatadi. Shuning uchun ham musiqa fanidan dars beruvchi o'qituvchilar bu borada ilg'or pedagogik texnologiyalarni dars jarayoniga loyihalashtirib, uni keng tadbiq etishimiz darkor.

Dars jarayonida o'quvchilarga musiqiy-pedagogik texnologiyani va musiqiy ta'lim-tarbiyani birgalikda olib borish maqsadga muvofiqdir. Musiqa fani o'qituvchisi o'quvchilarni ma'naviy, badiiy va axloqiy madaniyatlarini shakllantirishi, ularda milliy g'urur va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishini ta'minlashi zarur.

Umumta'lim maktablari musiqa madaniyati dars jarayonida o'quvchilarga shaxs sifatida qaralishi, turli pedagogik texnologiyalar hamda zamonaviy metodlarni qo'llanilishi ularni musiqa asarlari ustida mustaqil, erkin fikrlashga, kuylashga, mazmun-mohiyatini mantiqan tushunish, har bir musiqiy materialga ijodiy yondashish, mas'uliyatni sezish, eng asosiysi, musiqa fanini o'qishga bo'lgan qiziqishlarni kuchaytiradi.

Umumiy tarzda xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, bunday natijaga erishish musiqa amaliyotida o'quv jarayonida loyihalash va pedagogik texnologiyalarni qo'llashni taqazo etadi. Ular juda xilma - xildir. Bular yangi interfaol usullar va ta'lim metodlari hamda hozirda dars jarayonida qo'llaniladigan yangi pedagogik texnologiyalar shular jumlasidandir.

ИҚТИБОСЛАР/СНОСКИ/REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni. //“Xalq so‘zi” gazetasi. – 2017-yil 8-fevral. №28
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017-yil 20-apreldagi PQ 2909-son Qarori.
3. Axmedov Q.M., Ismoilov O.A. Yangi pedagogik texnologiyalar va ularni joriy qilish muammolari. –T.: «Fan va texnologiya», 2012, 36-b.

ISSN: 2181-4562
DOI Journal 10.56017/2181-4562

МАДАНИЯТ ВА САЊАТ ЖУРНАЛИ

I-ЖИЛД, 10-СОҢ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО

ТОМ-I, НОМЕР-10

JOURNAL OF CULTURE AND ART

VOLUME-I, ISSUE-10

«Маданият ва санъат» электрон журнали 2023 йил 24 февраль куни № 065356-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «IMFAKTOR Pages» масъулияти чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: tahririyat@imfaktor.uz

Веб-сайт: www.imfaktor.uz